

UDK: 340.132.642

INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI BADIY ASARLARDA "G'AZAB" KONTSEPTINI IFODALOVCHI TIL BIRLIKLARINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI.⁹

Turgunov Dilshodbek Bahodirovich

Ingliz tili o'qitishning integrallashgan kursi
kafedrası o'qituvchisi,
Andijon davlat chet tillar instituti, O'zbekiston

turgunov_77@mail.ru

Orcid ID: [0009-0001-7162-967X](https://orcid.org/0009-0001-7162-967X)

+998932519487.

ANNOTATSIYA

Maqolada ingliz va o'zbek tilidagi badiiy matnlarda "g'azab" kontseptini metaforik tarzda ifodalovchi sintaktik birliklarning leksik-semantik xususiyatlari va ularda milliy mentalitet va lingvokognitiv jihatlarining aks ettirilishi qiyosiy tarzda tahlil qilinadi. Chunonchi badiiy matnlarda kishilarning xis tuyg'ularini kengroq va jonli aks ettirish maqsadida to'g'ridan-to'g'ri leksik birliklar emas, balki tasviriylikka boy kognitiv-konseptual asosli metaforik birliklar qo'llaniladi. Ammo bu birliklar turli tillarda turlicha ifoda xususiyatlariga ega bo'lishi kuzatiladi. Shunga ko'ra ushbu maqolada ingliz va o'zbek adabiyotida "g'azab" kontseptini aks ettiruvchi leksik-sintaktik vositalarni semantik-konseptual jihatdan o'zaro qiyoslaymiz. Bu birliklar mazmunidagi milliy ifodalarning tarjima masalalari atroflicha tadqiq qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida emotsional kontsept belgilangan bo'lib, ularni nutqda voqelantiruvchi birlik sifatida kulturema va madaniy sema ajratib olingan. Badiiy diskurslarda illokutiv va implisit intensiyalarni to'g'ri anglashda aynan mana shu madaniy semalarning ustivor ekanligi isbotlab beriladi. Bu ayniqsa badiiy asarning tillararo tarjimasida muhim jihat hisoblanib, madaniy semalarni boshqa tildagi mos muqobil variantlariga almashtirish eng samarili yo'l ekanligi ko'rsatiladi. Shunga ko'ra tadqiqot mazmunida qiyosiy, transformatsion va segregetsiyalash metodlari muhim o'rin egallab, emotsional kontseptlarning tasviriy ifodalaridagi presedent va metoforik jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

KALIT SO'ZLAR

Emotsional kontsept, leksik-semantik maydon, olam manzarasining milliy aks ettirilishi, ifodalilik, frazeologik birlik, allomor xususiyatlar, til unikalialari, presedent.

Received: December 29, 2024

Accepted: January 18, 2024

Available online: May 2, 2025

⁹ For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Turgunov D. Ingliz va o'zbek tilidagi badiiy asarlarda "g'azab" kontseptini ifodalovchi til birliklarining lingvokulturologik tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 117-126.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ, ВЫРАЖАЮЩИХ КОНЦЕПТ «ГНЕВ» В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Тургунов Дилшодбек Бахадирович

преподаватель

кафедра интегрированного курса

английского языка

Андижанский государственный институт

иностранных языков, Узбекистан

turgunov_77@mail.ru

Orcid ID: [0009-0001-7162-967X](https://orcid.org/0009-0001-7162-967X)

+998932519487.

АННОТАЦИЯ

В статье в сравнительном аспекте рассматриваются лексико-семантические особенности синтаксических единиц, метафорически выражающих концепт «гнев» в английских и узбекских художественных текстах, а также отражение в их содержании национального менталитета и лингвокогнитивных особенностей. В таких художественных текстах с целью более широкой и правдивой передачи человеческих эмоций используются не прямые их обозначения, а насыщенные образностью познавательного-понятийного метафорические лексические единицы. Однако подобные единицы в разных языках имеют разные особенности выражения. Поэтому в данной статье мы сравниваем лексико-синтаксические средства, отражающие концепт «гнев» в английской и узбекской литературе, с семантико-понятийной точки зрения и подробно исследуем вопросы перевода лингвистических единиц с национально-культурным компонентом. Объектом изучения в нашем исследовании является эмоциональный концепт, а культуру и культурная сема рассматриваются как единицы, реализующие его в речи. Доказано, что именно культурологические семы являются ключевыми для правильного понимания иллокутивных и имплицитных интенций в художественных дискурсах. Это особенно важно при межъязыковом переводе художественного произведения, при осуществлении которого наиболее эффективным способом является замена культурной семы подходящим альтернативным вариантом другого языка. Соответственно, в исследовании важная роль отводится сравнительному, трансформационному и сегрегационному методам, которые позволяют определить прецедентные и метафорические особенности образного выражения эмоциональных концептов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Эмоциональный концепт, лексико-семантическое поле, отражение национальных особенностей в картине мира, значение, фразеологическая единица, алломорфные особенности, языковые уникалии, прецедентность.

LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF LANGUAGE UNITS EXPRESSING THE CONCEPT OF “ANGER” IN ENGLISH AND UZBEK LITERARY WORKS

Turgunov Dilshodbek Bakhodirovich,

The chair integrated course of teaching

English, teacher.

Andizhan State Institute of Foreign

Languages, Uzbekistan.

turgunov_77@mail.ru

[Orcid ID: 0009-0001-7162-967X](https://orcid.org/0009-0001-7162-967X)

+998932519487.

ABSTRACT

The article deals with the analysis of metaphorical and syntactic phraseological devices that express the concept of “anger” in fictional discourse in different languages and focus their linguacultural, ethical and national perspectives. Basing on unique national features of depicting the “anger” concept, the translation problems are thoroughly investigated. In such literary texts, not direct lexical units are used, but cognitive and conceptual metaphorical units rich in imagery designed to reflect human emotions more broadly and vividly. But it has been noticed that these units have different features of expression in different languages. Accordingly, in this article, we compare lexical and syntactic means that reflect the concept of “anger” in English and Uzbek literature from a semantic and conceptual point of view. The issues of translating linguistic units with national and cultural expressions are studied in detail. In our studies, the emotional concept was defined as the object of study, and cultures and national seme were identified as units that implement it in speech.

It has been shown that these cultural themes are the priority in correct understanding of illocutionary and implicit intentions in artistic discourses. This is particularly important in the interlingual translation of an art work, and it has been shown that the most effective way is to replace a cultural seme with suitable alternatives in another language. Accordingly, the comparative, transformative, and segregation methods occupy an important place in the content of the study and allow us to determine the precedent and metaphorical features of figurative expressions of emotional concepts.

KEY WORDS

Emotional concept, lexical-semantic field, national interpretation of the world, expressiveness, phraseological unit, allomorph features, language unique, allusion.

KIRISH

Badiiy matnlar millatning ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi meros ko'rinishida shu xalq tomonidan yaratilgan o'ziga xos milliy-etnik, madaniy, kognitiv-kontseptual va lingvomadaniy tushunchalarni ham ifoda qiladi. Bu borada tilning kognitiv sathi alohida o'rin egallab, aksariyat hollarda kontseptlarning faqatgina bir tilga tegishli bo'lgan jihatlaridan iborat bo'lish barobarida, nisbiy unikalialarni tashkil qiladi. Har bir kontsept o'z ifoda ko'lamida kengayib, alohida til hodisasi sifatida frazeologiyada ham o'z aksini topishi lozim bo'ladi. "G'azab" kontsepti ham alohida kontsept bo'lib, o'z ifoda vositalar qatorida frazeologik birliklarni ham aks ettiradi.

ASOSIY QISM

Turli tizimdagi tillardagi emotsional kontseptlarni ifodalovchi vositalar tahlili bevosita qiyosiy tahlil metodlari orqali amalga oshirildi. Ular mazmunidagi lingvokulturologik xususiyatlarni aniqlash tagmimik va komponentlarga ajratish usullari orqali aniqlanib tadqiqotning sifatiy jihatlarini belgilab berdi. To'plangan materiallarning o'zaro qiyoslanishi va qo'llanilish statistikasi esa izlanishning miqdoriy malumotlar bazasiga asos bo'ldi.

Tahlillar davomida to'plangan ma'lumotlarning qiyosiy o'ganilishi badiiy diskurslarda emotsional kontseptlarni aks ettirish jarayonida foydalanilgan leksik, frazeologik yoki metaforik ifodalar bu kontseptlarni ifodalovchi o'ziga xos milliy, madaniy va kulturologik xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Materiallar tahlili o'z navbatida ingliz va o'zbek tillarida "g'azab" kontseptini ifodalovchi vositalar struktural-semantik xususiyatlariga ko'ra o'xshash jihatlarini namoyon etish barobarida statistik yoki miqdoriy jihatdan farqlanishi aniqlandi. Jumladan o'zbek tilidagi lug'atlarda "g'azab" kontseptiga tegishli 17 ta frazeologik birlik aniqlagan bo'lsak, ingliz tilida bu miqdor 40 dan oshiq ekanligini kuzatdik. Bu jihat "g'azab" kontsepti ifodalarining qo'llanilish chastotasiga ham ta'zir qilib, ingliz tilida ko'proq ma'lumotlar topilishiga sharoit yaratdi. Aksariyat hollarda bunday ifoda vositalari barcha tillarga xos universal jihatga ega bo'ladilar. Biroq ayrim hollarda kontsept ifodasi faqatgina shu tilga xos bo'lgan semantik va kognitiv asossiatsiyalarni hosil qilib bir til doirasida yuzaga keluvchi unikalialardan iborat bo'ladi. Bu o'z navbatida tillararo tarjimalarda ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

"G'azab" kontseptining turli tillarda frazeologik ifodalari struktural-semantik jihatlarini va lingvokulturologik xususiyatlariga ko'ra bir-birlaridan farq qilsada, kontseptni obrazli tasvirlash va kontseptual ifodasiga ko'ra allomorf xususiyatlarni namoyon qiladi (Turgunov, 2023, 631). Jumladan o'zbek tilidagi "*jahlini chiqarmoq, zahrini sochmoq, aqlini yo'qotmoq*" kabi birliklar frazeologiyaga oid bo'lib, kontekstlarda asliy emas, majoziy ifodalilik asosida qo'llaniladi. Bu jihat ingliz tilidagi ham aynan bir xil bo'lib, faqat statistik yoki miqdoriy jihatdan farqlanadilar. O'zbek tilidagi lug'atlarda "g'azab" kontseptiga tegishli 17 ta frazeologik birlik

aniqlagan bo'lsak, ingliz tilida bu miqdor 40 dan oshiq ekanligini kuzatdik. Bu borada ingliz tilidagi bog'lama fe'llar yordamida hosil qilingan birliklar asosiy rol o'ynashini aniqladik. Masalan ingliz tilidagi "*get, go, to be, grow*" kabi fe'llar bu borada nihoyatda samarali ekanligi kuzatildi. Shunga ko'ra badiiy matnlarda bu kontseptni "*go*" komponentli birikmalar orqali ifodalanishi keng tarqalgan bo'lib, "*goes ballistic, go off the deep end, go bersek, go spare, go through the roof*" singari birikmalar barchasining semantikasida "*g'azab*" kontsepti o'z aksini topadi. a) *What's she going off the deep end for now?* (Hornby, 1994, P-37) - Qizni nimadan **jahli chiqayapti?** "My parents will **go postal** when they see the state of the house!" – uyning ahvolini ko'rib ota-onamning **fig'oni falakka chiqib ketdi**. b) *When Angela found out that her husband had spent the weekend with her best friend in a Brighton hotel she went off the deep end* (Green G., 1972, P-41) — Anjela o'z erining dam olish kunlarini eng yaqin dugonasi bilan Braytonda o'tkazganini bilgach, **jahldan quturib ketdi va mehmonxonada qattiq to'polon ko'tardi**. c) *"Lea's dad would go spare if he knew how much she spent in London!" He'll go spare if he knows?* (Hornby, 1994, 44) — Lidning otasi qizining Londonda qancha pul sarflagani bilsa, **naqd aqldan ozadi**.

Emotsional kontseptlarning nutq jarayonida tasviriy ifodaliligini aniq ko'rsatish va belgilash maqsadlarida inson hayotiy tajribasi va kechinmalariga asoslangan turli o'xshatishlar va qiyoslashlar orqali, boshqacha qilib aytgandi metaforik ko'chimlar yordamida ifodalash barcha tillarga xos universal hodisa hisoblanadi (Shahovskiy V.I., 2008, 126). Biroq bu tasviriy metaforalar turli lingvomadaniy jamoalarda turlicha semantik-kontseptual ifodalarga asoslanib, o'z navbatida shu emotsional kontsept bilan aloqador milliy ifodali komponentlardan tashkil topadi. Jumladan turli tillardagi "*g'azab*" kontseptini ifodalovchi metaforalar bir-birlaridan tashkiliy komponentlariga ko'ra farqlanishlari kuzatiladi. Xususan o'zbek va ingliz tillarida bu differentsiya aniqroq sezilsada ayrim ifodalar o'zaro o'xshash jihatlarni ham aks ettiradi (Myagkova E.Yu., 2000, 164). Bu borada ingliz va o'zbek tillarida "*g'azab*" kontsepti ifodasida "*olov*" va "*issiqlik/qaynash*" bilan bog'liq ifodalar deyarli o'xshash bo'lib, tadqiqotlarimiz davomida 67% hollarda aynan mana shu aloqadorlik asosida qurilgan metaforalardan foydalanilishi aniqlandi. Bunday ifodalar qatoriga ingliz tilidagi "*hot-blooded, burst a blood, blood boil, hot under the collar, to be fuming*" kabi birikmalar kiritilib, ularning tarkibi aksariyat hollarda "*olov*" tushunchasini asosiga quriladi (Larina T.B. 2004, 56). Xuddi shunday holatni mos ravishda o'zbek tilidagi "*portlab ketmoq, og'zidan olov purkamoq, qoni qaynab ketmoq, yonib ketmoq, tutab ketmoq*" kabi frazeologizmlar mazmunida ham kuzatamiz. Bu jihatda ikkila tildf ham uzviy o'xshashlik kuzatiladi. a) *His neighbors remembered him as a hot-blooded teenager, a self-styled ladies' man.* (J. Galsworthy, 'Beyond', 1962, part II, ch. II) – Atrofdai qo'shnilari uni onasining erkatoysi bo'lgan **jizzaki** yigitcha sifatida bilishar edi. b) *When he asked his boss for more wages, the man almost burst a blood vessel* (Galsworthy J., 1962,

37) — *Boylan maoshini ozroq ko'tarish haqida gap ochganida, boshlig'ini qoni qaynab ketdi.* v) *Before you **burst a blood vessel** it is worth noting why I'm doing it* (Sherwood R. E., 1973, 128) — *Darrov **lovullab ketmang**, hozir nega bunday qilayotganimni tushuntirib beraman.*

Ushbu misollardagi “a hot-blooded, burst a blood vessel” kabi birikmalar ko‘p hollarda frazeologik birikma sifatida talqin qilinib, ularning barchasi “qaynoq harorat” kontsepti asosida shakllangan. Mos ravishda o‘zbek tilida ham bunday aloqadorlik aniq sezilib turadi.

Ayrim kontekstlarda “issiqlik” tushunchasi konnotatsiyalari “sabab va oqibat” mutanosibligining o‘zgargan shakllari asosida aks ettiriladi. IOqoridagi misollardagi birikmalar sabab orqali ifodalansa, boshqa birikmalarda harorat oqibati tasviri misolida aks ettiriladi (Vejbitskaya A., 1999, 291). Jumladan ingliz tilidagi “a short fuse (oson erimoq), let off steam (bug‘i chiqmoq/tutab ketmoq), burst out, explode (portlamoq)” kabi birikmalari semantikasidagi “g‘azab” kontseptual ifodasi ham aynan issiqlik oqibatidagi hodisalar yordamida amalga oshirilgan. Masalan, a) *The press is also now on to the fact that Muskie can **have a short fuse**, and they poke and prod to see if he will **explode**.* (‘The Atlantic’, DNE) — *Gazetchilar ham senator Edvard Maskining **salga jahli chiqib tutoqib ketadigan** xarakteridan xabardor bo‘lganligidan unga tinimsiz **g‘ashiga tegadigan** savollar berishar edi.* b) *I went jogging to **let off some steam**.* (Sherwood R. E., 1973, 133) — *Sal **jahlimni bosish** uchun **yoqurishni boshladim**.*

Ammo ayrim hollarda turli tillar o‘rtasida “g‘azab” kontseptining frazeologizmlar va metaforik ifodalarida tillardagi lingvokul’turologik faktorlar asosida shakllangan farqli jihatlar ham kuzatiladi. Bu ayniqsa bu kontseptning ranglar ifodasi yordamida aks ettirishda ayniqsa yaqqol seziladi. Masalan ingliz tilida “g‘azab”ning yuz ifodasi va uning natijasidagi psixofiziologik o‘zgarishlar tasvirida “qizil” rang ustivor bo‘lib, buning uchun “red, flush, scarlet” kabi ranglar “rattle, bang, spash” kabi somatik ifodalar keng qo‘llaniladi. Biroq o‘zbek lingvomadaniyatida “g‘azab” ifodasi “ko‘karib ketmoq, oqarib ketmoq” kabi ranglar fiziologik jarayonlarda esa ingliz tiliga tamoman teskari holda “**duduqlanmoq, o‘zini/gapi yo‘qotib qo‘ymoq, esankirab qolmoq**” kabi birikmalar qo‘llaniladi (Turgunov D.B., 2024, 43). Bular esa o‘z navbatida tillar o‘rtasidagi allomorf xususiyatlarni ko‘rsatadi. *And then I don't know what happened. I was beside myself, I **saw red**, I seized the revolver and I fired.* (Maugham W. S., 1984, 96) — *Keyin nima bo‘lganini eslolmayman, shu qadar **aqlimni yo‘qotib qo‘yibman-ki, to‘pponchani oliboq otib yoribman**.*

Biroq ayrim hollarda ingliz tilidagi ham “ko‘k/moviy” rangni “blue in the face” birikmasida bo‘lganidek “g‘azab” ifodasi sifatida qo‘llangan holatlari ham kuzatilsada, ular epizodik xarakter kasb etadi va boshqa tillardan o‘zlashtirilgan lisoniy hodisa sifatida tahlil qilinadi. *He felt a rage until he **was blue in the face** — Uning shu qadar g‘azabi qaynadi-ki, **iozlari qahrdan ko‘karib ketdi**.*

“G‘azab” kontsepti metaforik ifodalardan tashqari sof frazeologik birikmalar bilan ham aks ettirilishi ko‘p kuzatiladi. Bu holda frazeologizm mazmunidagi “g‘azab” ifodasining etimologiyasini aniqlab bo‘lmasada, frazeologik lug‘atlar tarkibiga kiritilgan ma‘nosi asosida undagi qahr semantikasini anglay olamiz. Bunday frazeologik ifodalar tillardagi izomorfik belgi hisoblanib, bir lingvomadaniy jamoa orasidagina ma‘lum bo‘ladi. Ingliz tilida “g‘azab” kontseptini aks ettiruvchi frazeologizmlar qatorida *ran amuck; have a cow; let rip; have/ throw a fit; throw one’s toys out of the pram; a bunch of fives; at sixes and sevens; bandy words; to go berserk; a dust-up* kabi frazeologizmlar aynan shu kontseptni ifoda qiladilar. Bular orasidan “bandy words; bunch of fives” kabi frazeologizmlarning tarkibidagi komponentlari semantikasidan ulardagi “g‘azab” kontseptini anglash mumkin bo‘lsa, boshqa hollarda buning imkoni bo‘lmaydi (Gridin V.N., 1983, 117). A) *One night at a resort called Cedar Point, he got into a fight and ran amuck like a wild thing.* (Anderson Sh., 1962, 23) — *Bir kuni tunda Sider-Poynt Ed degan kurort shaharchada u juda quturib ketdi, zanjirini uzib olgan it kabi ko‘ziga ko‘ringan kishini talay boshladi.* Misoldagi *run amuck*- nazoratni yo‘qotmoq” birikmasining qo‘shimcha allokutiv ifodasi o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan “talamoq” orqali berilishi metaforik obyekt bo‘lgan “it(uy hayvoni)”ning faoliyati bilan bog‘liq “quturmoq” bilan o‘zaro almashtirilgan. Bu o‘z navbatida kontekstning emotsional ifodasini ham aniq saqlab qolish imkonini bergan. O‘zbek tilida bu konsept ba’zi kontekstlarda xuddi ingliz tilida bo‘lgani kabi “qutuqmoq”ga yaqin semalar bilan ham qo‘llanilishi kuzatiladi. Masalan quyidagi musollarda ayni shu holat kuzatiladi. *Osoning bu qilig‘ini ko‘rgan Bayqaro tamoman o‘zini yoqotib battar tutoqib ketdi.* (Murod Muhammad Do‘st, 1998, 17) B) *He ended up with a bunch of fives in the gut — Hammasi uning qorniga tushgan musht bilan yakun topdi.* C) *I am not going to bandy words with you, sir... I merely tell you that if you interfere with my wife, I’ll... I’ll break your neck.* (Cronin A. J., 1967, 36) — *Siz bilan pachakilashib o‘tirmayman, bitta gapiraman. Agar yana xotinimni g‘ashiga tegadigan bo‘lsangiz, jiqingizni uzib olaman.* D) *She’ll throw a fit when she knows — Ketrin bilib qolsa naqd joni halqumiga keladi.* E) *When I told her how much I had paid for my new suit she went completely berserk. — Men unga yangi kostyum uchun qancha to‘laganimni aytganimda xoinim g‘azab bilan menga tashlanib qoldi.*

Misollardagi ayrim frazeologizmlarning shakllanishi o‘zlashmalar hisoblanib, aksariyat hollarda pretsedent hodisalar vositasida kontseptual ifodalari paydo bo‘ladi. Jumladan “to go berserk” birikmasi qadimgi skandinav xalqlarining qahramoni nomidan shakllangan bo‘lib, uning “qalqonsiz, ayiq terisini yopingan holda g‘azab bilan ayovsiz jangga kirishi”ga pretsedent qilinadi. Bu kabi xususiyatlar esa o‘zbek tilida deyarli kuzatilmaydi (Turgunov D.B., 2023, 200).

XULOSA

Tahlillardan ko‘rinib turibdi-ki, badiiy asarlarda “g‘azab” kontsepti alohida kontsept sifatida universal kontsept bo‘lib, ham verbal, ham noverbal shaklda turli sathlardagi ifoda vositalariga egadir. Uning verbal ifodalanishi faqat leksik vositalar bilan amalga oshirilib, barcha tillarda deyarli allomorf hisoblanadi va “g‘azab” kontseptini leksik semalaridan iborat bo‘ladi. Biroq noverbal ifodalari tillardagi lingvomadaniy, lingvokognitiv xususiyatlaridan kelib chiqib tillar o‘rtasida farqlanishi kuzatiladi. Bu ayniqsa metaforik va frazeologik birliklar misolida yaqqol seziladi. Shu sababli ingliz tilidagi badiiy diskurslarda aks ettirilgan “g‘azab” semantikasini ifodalovchi birliklar tarjimasida o‘zbek tilidagi mos noverbal va somatik birliklar orqali amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi deb hisoblaymiz. Vohalanki ularni leksi ma’nolari orqali ifodalanishi ular qo‘llanilgan kontekstlardagi illokutiv va implisit ifodalarning noto‘g‘ri anglashilishiga sabab bo‘ladi va teskari javob reaksiyasini yuzaga keltiribgina qolmay, kontekst vaziyatini ham noaniq bo‘lishiga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Вежбицкая А. Семантические универсалии и описание языков. Текст. / А. Вежбицкая.—М.: Яз. Рус. культуры, 1999. 776 с.
2. Гридин В. Н. Семантика эмоционально-экспрессивных средств в языке Текст. / В. Н. Гридин // Психологические проблемы семантики. М., 1983.- С. 109-228.
3. Красных В. В., А. И. Изотов, В. Г. Кульпина. Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей / Ред. колл.: В. В. Красных, А. И. Изотов, В. Г. Кульпина. – М.: МАКС Пресс, 2009. – Вып. 37. – 100 с. ISBN 978-5-317-02897-8
4. Ларина Т. В. Выражение эмоций в английской и русской коммуникативных культурах Текст. / Т. В. Ларина // Язык и эмоции: личностные смыслы и доминанты в речевой деятельности: сб. науч. тр. -Волгоград: ЦОП «Центр», 2004 248 с.
5. Мягкова Е. Ю. Эмоционально-чувственный компонент значения слова Текст. / Е.Ю. Мягкова. Курск, 2000.-254 с.

6. Тургунов Д.Б. Влияние телевидения в формирование концепта «гнева». *IMRAS*, 7(12), Индонезия, 41–45. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/1932>
7. Тургунов Д.Б. Особенности концепта «гнева» в английском и узбекском языке. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*(2993-2769), 1(9), США, 198–201. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1411>
8. Тургунов Дилшодбек. (2023). Сопоставительный анализ средств обозначающих концепта «гнев». *Innovations in Technology and Science Education*, 2(16), 625–640. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/2154>
9. Шаховский В.И. Лингвистическая теория эмоций: моногр. М.: Гнозис, 2008.

REFERENCES

1. Vejbitskaya A. (1999). Semantic universals and description of languages. Moscow. Yaz. Rus. Kultury, 776 p.
2. Gridin V.N. (1983) Semantics of emotional-expressive devices in language. //in Psychological problems of semantics. Moscow. Pp. 109-228.
3. Krasnih V.V., Izotov A.I., Kulpina V.G. (2009). Language, cognition, communication. Moscow. MAKS Press, Vip. 37. 100 p.
4. Larina T.V. (2004) Expressing emotions in English and Russian communication culture.//in Language and Emotions. Volgograd. TSOP "Tsentr". 248 p.
5. Myagkova E.Yu. (2000) Emotional-sensitive components of word meaning. – Kursk. 254 p.
6. Turgunov D.B. (2024). THE AFFECT OF TV IN THE FORMATION OF THE "ANGER" CONCEPT. *IMRAS*, 7(12), 41–45. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/1932>
7. Turgunov D. (2023). Comparative analysis of devices expressing the "anger" concept. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(16), 625–640. Retrieved from <https://humoscience.com/index.php/itse/article/view/2154>

8. Turgunov D. B. (2023). Features of the concept of "Anger" in English and Uzbek Languages. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 198–201. Retrieved from <http://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1411>
9. Shakhovsky V.I. (2008) Linguistic theory of emotions: monograph. Moscow. Gnosis.